

Nara Prefekturasi

Aholi turmush masalalari maslahat markazi

Iste' molchi masalalari, Gender tengligi, Ota-ona to'liq bo'lmagan oilalar, Xorijiy rezidentlar, LGBTQ+ masalalariga oid maslahat yoki tavsiyalar va ma'lumotlar berish markazi




Maslahat

Mutaxassis xodimlar sizning murojaatingizni tinglashadi.
Barcha xizmatlar bepul va maxfiylik qat'iy saqlanadi.



Iste' molchi masalalari

Mahsulot xaridi, xizmatlar ko'rsatish va iste' molchilar hayotiga oid turli masalalar bo'yicha mutaxassis maslahatchilar murojaatlarga javob berishadi hamda muammoni hal qilish uchun tavsiya va vositachilik yordamlarini ko'rsatishadi.



Ayollar maslahat markazi

Ayollar duch kelishi mumkin bo'lgan turli muammolar (hayot, oila yoki turmush, ish va ishxona, atrofdagilar bilan munosabat) bo'yicha ayol mutaxassislar maslahatlar berishadi. Shuningdek, ayol advokatlar tomonidan ham maslahat xizmatlari ko'rsatiladi.



To'liq bo'lmagan oilalar

Yolg'iz ota-onalar, ajrashishni rejalashtirayotganlar va shunga o'xshash holatdagi shaxslar uchun turli nafaqalar va moddiy yordamlar, bolani tarbiyasini qo'llab-quvvatlash xizmatlari, aliment (bola ta'minoti) hamda ota-ona va farzandning uchrashuvlari (muloqoti) bo'yicha kelishuvlar yuzasidan maslahat beriladi. Shuningdek, ayol advokatlar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan ham bepul maslahatlar taqdim etiladi.



Erkaklar maslahat markazi

Erkaklar duch kelishi mumkin bo'lgan turli muammolar (hayot, oila yoki turmush, ish va ishxona atrofdagilar bilan munosabat) bo'yicha erkak mutaxassislar maslahatlar berishadi.



Chet ellik fuqarolar maslahat xizmati

Yaponiyada yashayotgan chet ellik fuqarolar kundalik turmush tarzida duch kelishi mumkin bo'lgan turli muammolar va masalalar bo'yicha maslahat olishlari mumkin. (Maslahat quyidagi tillarda taqdim qilinadi: yapon, ingliz, xitoy, vetnam tili va shu kabi boshqa 8 tilda)



LGBTQ+ maslahat xizmati

O'zini LGBTQ+ yoki jinsiy/gender ozchilik vakili deb biladigan shaxslar, o'zini shunday bo'lishi mumkin deb hisoblayotganlar, shuningdek ularning oila a'zolari, do'stlari, ishdagi hamkasblari, maktabdagi o'qituvchilari yoki sinfdoshlari kabi ular bilan aloqador shaxslarning murojaatlari ham qabul qilinadi. Maslahatlar maxfiylikka rioya qilingan holda taqdim etiladi.



Aholining xabardorligini oshirish va axborot tarqatish

Kundalik hayotda foydali bo'ladigan ma'lumotlarni taqdim etamiz hamda o'rganish va o'zaro muloqot qilish uchun imkoniyat yaratamiz.

Ma'ruza•Tadbirlar /O'quv materiallari

- Iste' molchilar masalalari, gender tengligi va ko'p madaniyatli jamiyat va hamjihatligiga oid ma'ruzalar hamda tadbirlar tashkil etib boriladi.
- O'quv materiallarini tayyorlash va tarqatish, shuningdek veb-saytlar orqali axborot taqdim etish kabilarni amalga oshirib boriladi



Ma' rifiy•ijtimoiy muloqot burchagi

- Turli xil bukletlar va tegishli kitoblarni ko'rish, o'qish hamda vaqtincha olib turish mumkin.
- Mahalliy faoliyat guruhlari (ro'yxatdan o'tish asosida) yig'ilishlar va boshqa uchrashuvlar uchun foydalanishlari mumkin.



•Markaz bilan hamkorlikda tashkil etiladigan seminar, yig'ilish va boshqa shu kabi tadbirlar uchun ma'ruza xonasidan bepul foydalanish mumkin (muayyan shartlar asosida).



Maslahat xizmatlari to'g'risida ma'lumot

Telefon orqali yoki yuzma-yuz maslahat olish imkoniyati mavjud.

Maslahat xizmatlarining telefon raqamlari, qabul kunlari va vaqtlari turlicha.

Murojaat qilishdan avval tegishli ma'lumotlarni tekshirishingizni so'raymiz.



Maslahat bo'limi	Telefon	Qabul kunlari va vaqtlari (bayram va yangi yil kunlaridan tashqari)
Iste'molchilar masalalari bo'yicha (Iste'molchilar masalalari markazi)	0742-81-9996	Barcha ish kunlari 9:00-12:30, 13:30-16:30
Iste'molchilar masalalari bo'yicha (Iste'molchilar masalalari markazi Chuunanza hududiy bo'limi)	0745-22-0931	Barcha ish kunlari 9:00-11:30, 12:30-16:30 【Manzil】 12-5 Katashio-cho, Yamatotakada Yamatotakada fuqarolari muloqot markazi (Cosmos Plaza)
Ayollar uchun maslahat xizmati ※Yuzma yuz maslahat olish uchun oldindan ro'yatdan o'tish talab etiladi	0742-22-1240	Seshanbadan shanbagacha (Dushanba bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-16:30
Yolg'iz ota-onali oilalar uchun maslahat xizmati (Smile center) ※Yuzma-yuz maslahat uchun oldindan yozilish talab etiladi.	0742-24-7624	Seshanbadan shanbagacha (Dushanba bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-16:30
Chet el fuqarolari uchun umumiy maslahat xizmati	0742-81-3420	Seshanbadan shanbagacha (Dushanba bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-16:30
Ukrainalik fuqarolar uchun yagona murojaat xizmati	0742-81-4310	Seshanbadan shanbagacha (Dushanba bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-16:30
Erkaklar uchun maslahat markazi ※Yuzma yuz maslahat uchun oldindan yozilish talab etiladi	<Telefon orqali maslahat olish> 0742-27-0304 <Yuzma yuz uchrashuv uchun yozilish>※ 0742-27-2300	Har oyning 1- va 3-shanbasi 13:30-16:20 ※ Yuzma-yuz maslahatga yozilish uchun arizalar qabul qilinadi. Seshanbadan shanbagacha (Agar dushanba kuni bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-17:00
LGBTQ+bo'yicha maslahat xizmati (Nijiiro maslahat xizmati) ※Yuzma yuz maslahat olish uchun oldindan ro'yatdan o'tish talab etiladi	<Telefon orqali maslahat olish> 0742-81-3905 <Yuzma yuz uchrashuv uchun yozilish> 0742-27-2300	Har oyning 2-shanbasi 13:30-16:20 ※ Yuzma-yuz maslahatga yozilish uchun arizalar qabul qilinadi. Seshanbadan shanbagacha (Agar dushanba kuni bayram kuni bo'lsa, keyingi ish kuni ham dam olish kuni hisoblanadi) 9:00-12:30, 13:30-17:00

•Bir nechta masala bo'yicha murojaat qilingan holatlarda, masalalar tegishli maslahat markazlari maslahatchilari tomonidan o'zaro hamkorlikda ko'rib chiqiladi.

•Murojaatchi murojaat mazmuniga ko'ra tegishli ixtisoslashgan tashkilot yoki muassasaga yo'naltirilishi mumkin.

Nara Prefekturasi Aholi turmush masalalari maslahat markazi

TEL 0742-81-9111(Markaziy telefon raqam)

Kintetsu Takama binosi 38-3 Takama-cho, 630-8241
(Kintetsu Nara stansiyasi, g'arbiy chiqish (西改札口) 7-chi chiqish tomoniga bevosita tutashgan)

2-qavat Ma'rifiy-ijtimoiy muloqot burchagi, ma'ruzalar xonasi
[Ish vaqti] Dushanbadan shanbagacha
(rasmii bayram kunlari hamda yil oxiri va yangi yil bayram kunlaridan tashqari)
9:00-12:30, 13:30-17:00

5-qavat Iste'molchi masalalari bo'yicha maslahat
(Iste'molchi masalalari bo'yicha maslahat markazi)

6-qavat Gender tengligi va xorijliklarni qo'llab-quvvatlash bo'limi
(Ayollar, yolg'iz ota-onalar va shu kabi olalar, xorijliklar, erkaklar, LGBTQ+masalalari bo'yicha maslahatlar)

